
SAYYOR QABUL: MUAMMO VA MASALALARNING MUNOSIB YECHIMIDIR

Rishton tuman IIB boshlig'i X.Tashpo'latov tumandagi "Dasht Pandigon" mahallasida aholi murojaatlarni o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida sayyor qabul o'tkazdi. Sayyor qabul jarayonida fuqarolardan tushgan savollar, takliflar, murojaatlar shu kunning o'zida o'rganildi. Jumladan suv, elektr, gaz ta'minoti, elektr ustunlarni o'rnatish, tibbiy xizmatni takomillashtirish kabi muammolar yuzasidan tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillari tomonidan tushuntirish ishlari olib borildi va vaqt imkoniyat talab etiladiganlari nazoratga olindi.

📍 Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-19 15:06:08